

XOSIYAT RUSTAMOVA SHE'RIYATINING O'ZIGA XOSLIGI.

Gulzodaxon Abduolimova

Farg'ona davlat universiteti Filologiya

fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotasiya : Ushbu maqolada Xosiyat Rustamova hayoti, ijodi haqida ma'lumotlar beriladi hamda shoir she'riyatining o'ziga xos jihatlari yoritilib, she'riy na'munalar asosida tahlil qilinadi

Kalit so'zlar: poetik olami, tasvir, tabiat, tashbeh, metafora, husni ta'lil, obrazlar.

Abstract: This article provides information about Khosiyat Rustamova's life and work, highlights the unique aspects of the poet's poetry, and analyzes it based on poetic examples.

Keywords: poetic world, image, nature, simile, metaphor, beauty of analysis, images.

Аннотация: В данной статье представлена информация о жизни и творчестве Хосият Рустамовой, освещены особенности поэзии поэтессы и проанализированы на основе поэтических примеров.

Ключевые слова: поэтический мир, образ, природа, сравнение, метафора, красота анализа, образы.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida o'ziga xos ovozi, uslubi va poetik olami bilan ajralib turuvchi ijodkorlardan biri Xosiyat Rustamovadir.

Xosiyat Rustamova 1971-yil 19-martda Namangan viloyati, Chust tumanidagi Olmos qishlog'ida tug'ilgan. 1993-yilda ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan. Uning ilk she'riy namunalari talabalik yillaridayoq mahalliy matbuotlarda dunyo yuzini ko'rdi.

“Shuncha olomonning ichidan qo'rqmay,

Yuragimni baland ko'tarib chiqdim”

degan shoira she'riyat olamiga ham ulkan yurak bilan kirib keldi. «Osmondagi uy» (1997), «Najot» (2003), «Rido» (2004), «Devor» (2006) kabi she'riy to'plamlari nashr etildi. M. Svetaeva, A. Axmatovaning ayrim she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qildi hamda «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi (2004).

Uning she'riyatida vatan, ayol, sevgi, xudo, hayot va o'lim kabi mavzular yetakchilik qiladi. Xosiyat Rustamovaning o'zi she'rlaridan birida “Men yashagan joy – bu hayotdan ozroq narida” deb ta'kidlaganidek, u najib hislari ila o'zga olamda yashaydi va o'z-o'zidan bu ajiblik o'quvchiga ham ko'chib o'tadi. Shoira she'r yozar ekan, avvalo tabiatni his qiladi, uning bir bo'lagi ekanini chuqur anglaydi va ana shu hislar varoqqa ko'chib, misralarni jonlantiradi, tirik tasvirlar yaratadi. Misol uchun, birgina oyni shoira she'rlarida turlicha tasvirlanganini ko'rishimiz mumkin. Bir she'rida “Oy osmonning ko'ksidagi dog” tashbehi qo'llansa, boshqa bir she'rida:

“Osmonning bir chetida,

Koptok o'ynaydi hilol”

misralari uchraydi. Yana bir she'rida tunda oyning chiqishi va uni tong otguncha osmonda bedor turishi oddiy astronomik hodisa bo'lsa-da, shoira uni husni ta'lil yo'li bilan:

“Uxlatmaydi oyning ko'ziga –

Yulduzlarning yorug'i tushib”

deya izohlab, go'yoki oyning bedorligiga yulduzlar nurini vaj qilib ko'rsatadi. Tunda cho'ponlarning bedor bo'lishi va sergaklik bilan podalarni qo'riqlashi sababli har narsaga shubha bilan qarashlarini esa quyidagicha ifodalaydi:

“Cho'ponga oy ham, hatto –

Bo'ri bo'lib ko'rinar”.

Ushbu misralar shunchaki tabiat tasviri yoxud cho'ponning ruhiy holati bo'libgina qolmay, balki “Og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichar” naqliga monand vaziyatni ham yoritgan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari shoira tabiatdagi oddiy predmetlardan ham ramziy ma'noda foydalanib o'ziga xos metaforalar yaratadi. Ana shunday she'rlaridan biri quyidagicha:

Boshimdagi telpak yumshoq yung –
O‘ldirilgan o‘rmon qiroli.
Mening bitta po‘stinim uchun
Yo‘q qilganlar qancha quyonni?
Hayot menga qilar qancha sarf,
Bo‘lardi-ku tezroq qarizam.
Bo‘ynimdagi qimmatbaho sharf –
Esdalikdir suv parisidan.
Jilolanar burgutko‘z sumkam,
Yuragimga dengiz sochar dur.
Timsokteri etigim bilan
Men atrofga boqaman mag‘rur.
To‘ldiraman har kun kamini,
O, naqadar o‘chman hashamga.
Hayot bari jonzotlarini
Dafn etar mening jussamga.

Shoira ushbu she‘rida insonning hashamatga intilishi ortida nechog‘lik shafqatsizlik, tabiatga nisbatan beparvolik yashirib yotganini keskin fosh etadi. Bir qarashda kiyimlar, bezaklar oddiy hayotiy ehtiyojdek tuyuladi, biroq Xosiyat Rustamova ularning ortida turgan achchiq haqiqatni — hayvonot dunyosi insoniyatning qurboni bo‘layotganini jonli obrazlar vositasida ko‘rsatadi. “O‘ldirilgan o‘rmon qiroli” misrasi orqali u inson istaklari tufayli o‘rmonlar hukmdori bo‘lgan hayvonlarning nobud qilinishiga ishora qiladi. Quyon, burgut, timsoh kabi hayvonlar qurbon qilinar ekan insonning tanasi ana shu hayvonlarning qabristoniga aylanib borayotgani biroq insoniyat shunda ham bunga parvo qilmay, aksincha mag‘rurlanishini “Timsokteri etigim bilan, Men atrofga boqaman mag‘rur” misralari orqali ta’kidlab o‘tadi.

Shu bilan birga Xosiyat Rustamova adabiyotning markaziy obrazi bo‘lgan ayolni ham nazardan chetda qoldirmaydi. Halima Xudoyberdiyeva she‘rlaridan birida :

“Baland bir o‘t yongan ichimni
Men sovutib yashashim kerak.
O‘z-o‘zimga sarflab kuchimni,
Men ovutib yashashim kerak”

deganidek, Xosiyat Rustamova ham ayolning sabri, matonatini tasvirlar ekan, Tangridan kuch berishini iltijo qiladi:

“Yo Tangrim,
Sen menga kuch ber,
Ber chidam –
Xuddi daraxtlarday ko‘tarayin qad.
Ichimga qor yog‘ib turganida ham,
Men kulib turishim kerak hamma vaqt”.

Muxtasar qilib aytganda, Xosiyat Rustamova she‘riyatida tabiat unsurlari yetakchi obraz darajasiga ko‘tarilib, ular orqali betakror ramziy ma’nolar yaratiladi. Shoir o‘quvchini borliqni his etish va qadrlashga chorlaydi. Uning poetik olami inson ruhiyatini tabiat bilan uyg‘un holda talqin etishi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rustamova X. Osmondagi uy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1997.
2. Rustamova X. Najot. – Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2003.
3. Rustamova X. Rido. – Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2004.
4. Rustamova X. Devor. – Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 2006.
5. Xudoyberdiyeva H. She‘rlar. – Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 1999.
6. Normurodov S. Zamonaviy o‘zbek she‘riyati poetikasi. – Toshkent: Universitet, 2015.
7. Xosiyat Rustamova. // Ziyouz adabiy portali.
8. “Xosiyat Rustamova she‘riyatida vatan mavzusi talqini” // Electronic Research Archive, 2022.